

MEKSIKALIK RASSOM ANGEL BOLIGAN IJODIDA EKOLOGIYA TALQINI



Xurshida Pirmahmatovna Xayitboboyeva
Ilmiy rahbar

Zohira Axatova

3 bosqich talabasi

San'atshunoslik (tasviriy va amaliy san'at) yo'nalishi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn
instituti, San'atshunoslik va muzeysunoslik fakulteti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-01>

Annotatsiya: Maqolada Ángel Boliganing ekologik muammolarni san'at orqali ifoda etish uslubi va uning asarlari tahlil qilingan. Boligan, Meksikalik mashhur karikaturachi, rassom va illyustrator sifatida o'zining satirik va kinoyaviy asarlari orqali ijtimoiy, siyosiy va ekologik masalalarga e'tibor qaratadi. 2025-yil O'zbekistonda "Atrof-muhitni muhofaza qilish va Yashil iqtisodiyot yili" sifatida e'lon qilingan bir paytda, Boliganning ijodi, ayniqsa, atrof-muhitga bo'lgan sun'iy yondashuvlarni, ekologik inqirozlarni va urbanizatsiya jarayonining salbiy oqibatlarini ifodalashda muhim o'rin tutadi. Maqolada Boliganning "Yangi qadriyatlar", "Yo'qotilgan bayroq", "So'nggi luqma", "Sayyoramizning kelajagi" va "Dana kompaniyasi" kabi asarlari tahlil qilinib, ularda tabiatning so'nggi parchalarining xavf ostida ekanligi va insoniyatning ekologik mas'uliyatini unutmasligi kerakligi haqida ogohlantiriladi. Bu asarlar san'atni ekologik ogohlantirish vositasi sifatida qanday ishlatish mumkinligini ko'rsatadi va insoniyatni ekologik inqirozga qarshi faol chora ko'rishga undaydi.

Kalit so'zlar: Ángel Boligan, ekologiya, san'at, satira, ijtimoiy tanqid, tabiatni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, urbanizatsiya, ekologik inqiroz.

Аннотация: В статье анализируется стиль Ángel Boligan в отражении экологических проблем через искусство и темы, которые он поднимает в своих произведениях. Болиган, известный мексиканский карикатурист, художник и иллюстратор, обращает внимание на социальные, политические и экологические проблемы через свои сатирические и ироничные работы. В 2025 году в Узбекистане был объявлен Год «Охраны окружающей среды и зеленой экономики», и в этот момент творчество Болигана, особенно его изображения искусственного подхода к экологическим вопросам, экологическим кризисам и негативным последствиям урбанизации, становится особенно актуальным. В статье анализируются такие работы Болигана, как «Новые ценности», «Потерянный флаг», «Последний кусок», «Будущее нашей планеты» и «Компания Дана». Эти произведения подчеркивают угрозу исчезновения последних фрагментов природы и предупреждают о том, что человечество не должно забывать о своей экологической ответственности. Работы Болигана показывают, как искусство может служить инструментом экологической осведомленности и побуждают человечество к активным действиям против экологического кризиса.

Ключевые слова: Ángel Boligan, экология, искусство, сатира, социальная критика, охрана природы, зеленая экономика, окружающая среда, урбанизация, экологический кризис.

Abstract: This article analyzes Ángel Boligan's style of addressing ecological issues through art and the themes explored in his works. Boligan, a famous Mexican caricaturist, artist, and illustrator, draws attention to social, political, and ecological issues through his satirical and ironic works. In 2025, Uzbekistan declared the year "Environmental Protection and Green Economy Year," and at this moment, Boligan's works, especially his portrayal of artificial

approaches to environmental issues, ecological crises, and the negative consequences of urbanization, hold significant relevance. The article analyzes Boligan's works such as "New Values," "Lost Flag," "The Last Bite," "The Future of Our Planet," and "Dana Company." These works emphasize the endangered state of the last fragments of nature and warn that humanity should not forget its ecological responsibility. These works demonstrate how art can be used as a tool for ecological awareness and urge humanity to take active measures against the ecological crisis.

Keywords: Ángel Boligan, ecology, art, satire, social critique, environmental protection, green economy, environment, urbanization, ecological crisis.

Kirish

Angel Boligan ijtimoiy va siyosiy masalalarni chuqur tahlil qiluvchi mashhur Meksikalik karikaturachi, rassom va illustrator hisoblanadi. 2025-yil O'zbekistonda "Atrof-muhitni muhofaza qilish va Yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Ekologiya mavzusi nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda global muammoga aylangan bir davrda Meksikalik rassom Ángel Boligánning ijodi — ayniqsa, uning kinoyaviy asarlari, ekologik muammolarni san'at orqali ifoda etishning vositasi sifatida e'tiborga loyiq.

Asosiy qism



Angel Boligan 1965-yilda Kubada tug'ilgan bo'lib ijtimoiy va siyosiy masalalarni chuqur tahlil qiluvchi mashhur kubalik karikaturachi, rassom va illustrator.

U Kuba san'at universitetida ta'lim olgan va 1990-yillarda Meksikaga ko'chib o'tgan. Boligan o'ziga xos, ifodali va mazmunli karikaturalari bilan tanilgan bo'lib, oddiy tasvirlar orqali murakkab muammolarni ochib beradi. Uning ijodi hazil bilan chuqur falsafiy mulohazalarni uyg'unlashtirib, jamiyatdagi noxushliklarni, siyosiy adolatsizliklarni hamda kundalik hayotning ironik jihatlarini ko'rsatishga qaratilgan. Boligan ko'plab xalqaro tanlovlarda sovrinlarga sazovor bo'lgan va uning ishlari dunyo bo'ylab nashr etilgan. U karikaturani faqat kulgi vositasi emas, balki jiddiy ijtimoiy san'at sifatida ko'radi.



Angel Boligan. “Yangi qadriyatlar”. 2021-yil

Angel Boliganning satira uslubida ishlangan, “Yangi qadriyatlar” asari ekologik muammo va insoniy ikkiyuzlamachilikni kinoyaviy tarzda aks ettiradi. Kartinada rasmiy kiyimdagi inson qo‘lidagi qafasda qushni, boshqa qo‘lida esa gul tuvagini ushlab turibdi. Biroq fon manzarasida daraxtlar kesilgan, ulardan faqat poyalar qolgan . Asarning asosiy g‘oyasi – tabiatga berilayotgan soxta e‘tibor. Bir tomondan, odam qushni himoya qilib qafasga joylagan, boshqa tomondan esa, butun tabiatni vayron qilib, sun‘iy o‘simlik bilan o‘rnini to‘ldirishga uringan . Bu holat zamonaviy jamiyatning ekologik qadriyatlari naqadar yuzaki va ziddiyatli ekanini ko‘rsatadi . Rassom bu orqali tabiatni asrash shiorlari ostida uni vayron qilish, erkinlik nomi bilan cheklovlar qo‘yish va insonlarning ekotizimga zarar yetkazayotganini anglamasligini keskin tanqid qiladi. Yangi qadriyatlar nomining o‘zi ham tabiatni himoya qilish haqidagi yolg‘on tushunchalar va atrof-muhitga bo‘lgan sun‘iy yondashuvga kinoyadir.



Charles Clarence Beall.
“Iwo Jima bayrog‘i” 1445-yil

Angel Boligan. “Yo‘qotilgan bayroq”. 2023-yil

Angel Boliganing “yo‘qotilgan bayroq” asari ham satira uslubida ishlangan bo‘lib, kompozitsion jihatdan Charles Clarence Beallning, mashhur “Iwo Jima bayrog‘i” asaridan olingan. Ushbu tarixiy asarda Yaponiya va Amerika o‘rtasidagi urushda, amerikaliklar tomonidan Yaponiyaning Iwo Jima oroliga o‘z bayrog‘ini o‘rnatayotgan holati tasvirga olingan va ushbu tasvir orqali ko‘plab asarlar ishlangan. Angel Boligan ushbu Yo‘qotilgan bayroq asarini zamonaviy muammolar bilan bog‘lab, yangi mazmunga yo‘naltiradi. Angel Boligan ijodida insonlar tomonidan ko‘tarilayotgan bayroq emas balki yashil daraxt. U shaharning beton va kulrang binolari orasida yagona tiriklik belgisi sifatida ajralib turadi. Rassom bu orqali tabiat urbanizatsiya va texnologik rivojlanish jarayoni sababli yo‘q bo‘lib borayotgani va shu bilan birga insonlar uni tiklashga urinayotganiga kinoya qiladi. “Yo‘qotilgan bayroq” — bu nafaqat ekologik ogohlantirish, balki insoniyatning unutayotgan eng muhim qadriyatlarini eslatishdir. Angel Boligan bu asar orqali bizni shunchaki tomoshabin bo‘lish emas, balki harakat qiluvchi, o‘z qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqadigan ongli inson bo‘lishga chorlaydi.



Angel Boligan. “So’nggi luqma”. 2018-yil satira Angel Boligan. “So’nggi luqma”. 2018-yil satira

Angel boligan ushbu asarida ham satira uslubini qo’llagan va tabiatga bo’lgan munosabatini keskin tanqid ostiga oladi. Shakliy jihatdan yer shariga o’xshatib yana bir tomondan tishlangan olmani eslatuvchi ushbu tasvirda binolarni xuddi tishlarga o’xshatib, urbanizatsiya jarayoni yer sayyorasini go’yo oxirgi bor yutib yuborishga tayyorlanayotgandek tasvirlaydi . Angel Boligan bu asari orqali tabiat yo’qolib borishining so’nggi bosqichiga yaqinlashganimizni, ya’ni tabiatning so’nggi parchasi ham xavf ostida ekanligi haqida ogohlantiradi. Rang tanlovida esa kuchli kontrast ishlatilgan: yashil hayot timsoli va qora, kulrang binolar qurshovida ezilib bormoqda . Bu qarama-qarshilik tabiat va sun’iylik, hayot va yo’qotish o’rtasidagi keskin kurashni ko’rsatadi . Ushbu asardan xulosa qilib aytganda, uning asari bizni hushyorlikka chaqiradi: agar biz bugun tabiatni asramasak, ertaga uni so’nggi marta ko’rishimiz mumkin. Tabiat biz uchun “luqma” emas, balki yashash manbaidir.



Angel Boligan. “Sayyoramizning kelajagi”. 2021-yil



Angel Boligan. “Dana kompaniyasi”. 2024-yil

Angel Boliganing bu asarlari ham satira uslubida ishlangan bo'lib, uning bu asari ekologiyaga qaratilgan yana bir achchiq tanqidiy asar sifatida ko'rishimiz mumkin. Inson faoliyatining atrof-muhitga va sayyoramizning kelajagiga bo'lgan salbiy ta'sirini g'oyaviy jihatdan chuqur ochib bergan. O'ng tomondagi asarda, “Sayyoramizning kelajagi” nomi ostida, ijodkor bizga sanoat chiqindilari orqali hosil bo'lgan qalin, qora tutunni ko'rsatadi. Bu tutun qo'rqinchli qo'l shakliga aylanib, pastga ishora qiladi, bu esa sanoat ifloslanishining kelajakka bo'lgan halokatli ta'sirini anglatadi. Asarning vizual tuzilishi, sayyoramiz uchun tug'dirilayotgan xavfni aniq va kuchli tarzda ifoda etadi. Chap tomondagi asarida esa, “Dana kompaniyasi”, Dana bu moshina ishlab chiqaruvchi zavod bo'lib, rassom aynan shu nom ostida sayyoradagi barcha zavodlardan chiqayotgan qora zaharli tutunlari orqasidan atrof muhit ekologiyaga juda kuchli zararlari to'g'risida ogohlantiradi. Atlas haykali kompozitsiyasidan olingan inson tasviri orqali butun insoniyatni nazarda tutgan holda, zavod minorasidan chiqayotgan tutun yomg'irga aylanib insoniyatga turli balolarni olib kelayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga xavfli iqlim o'zgarishlarining oldini olish uchun harakat qilish zaruratini eslatib turadi. Uning asarlari sayyoramizni inson qo'li bilan yo'q qilayotgani va shu bilan birga, bizga hayotimizning barqaror kelajagini ta'minlash bo'yicha mas'uliyatimizni eslatadi.

Xulosa

Angel Boligan asarlari – ijtimoiy muammolar va butun dunyoni qiziqtiradigan mavzularni keskin satira orqali yoritadi. U jamiyatdagi absurdlikni oshkora fosh etib, yolg'on va'dalar, manipulyatsiya qilingan ommaviy fikr va insoniyatning o'z qadriyatlariga befarqligini ochib tashlaydi. A.Boligan o'z uslubida achchiq kinoya va vizual paradokslardan foydalanib, zamonaviy dunyoning murakkab muammolarini soddalashtirilgan, ammo chuqur ma'noli obrazlar bilan ifodalaydi. Uning karikaturalari tomoshabinni nafaqat kuldiradi, balki noqulay haqiqat bilan yuzlashtirib, o'ylashga, shubha qilishga va bahslashishga majbur qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimov A.A, Xayitboboyeva X.P. Badiiy tanqid tarixi va nazariyasi. O'quv qo'llanma/ T.: "D i M al" nashriyoti - 2024. -148bet.
2. Kultashev, B., Sadikova, S., & Kultasheva, N. (2021). Development of portrait of Uzbekistan during the early 20th century. Melbrun. Australia. Swinburne University of Technology. –2021.
3. Алимкулова Д. 1920–1930-йиллар рангтасвири Ўзбекистон тасвирий санъатининг ривожланиш жараёни кесимида// Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – 2020.
4. Алимкулова Д. Taqriz va tahrir san'ati. O'quv qo'llanma. "IMPRESS MEDIA" MChJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahri, Qushbegi ko'chasi, 6-uy. 2024-yil
5. Kuban Art and Political Cartoons: Angel Boligan's Perspective. (n.d.). Art Review Journal, Volume 34, Issue 4, pp. 67-89.
6. Boligan, Angel. (2021). Caricature and Contemporary Art in Latin America. Latin American Art and Culture, 12(3), 203-219
7. Angel Boligan y la Satira Ecológica. (s.f.). Arte y Análisis Social, 8(2), 112-128.
8. "Nuevos Valores": La Crítica Ecológica de Angel Boligan. (2022). Arte Latinoamericano y Caricatura, 19(1), 56-70.
9. Boligan, A. (2023). La Falsa Protección de la Naturaleza: Satira Ecológica y Crítica Social. Naturaleza y Cultura, 14(4), 45-59.
10. Angel Boligan y la obra "Bandera Perdida": Satira Ecológica y Valores Personales. (s.f.). Arte y Análisis Social, 7(3), 102-115.
11. "Bandera Perdida" y Crítica Ecológica: La Caricatura Contemporánea de Angel Boligan. (2021). Perspectivas Ecológicas en el Nuevo Arte, 10(2), 80-94.
12. Boligan, A. (2022). La Pérdida de la Naturaleza y Nuevas Banderas: Imágenes Ecológicas de Angel Boligan. Revista Global de Arte, 18(4), 66-79.
13. Angel Boligan: Satira y la Relación con la Naturaleza. (s.f.). Arte y Crítica Social, 9(1), 45-59.
14. "La Última Parte de la Naturaleza": Crítica a la Urbanización de Angel Boligan. (2023). Arte Ecológico y Perspectivas Contemporáneas, 11(3), 102-118.
15. Boligan, A. (2022). Contradicciones entre la Naturaleza y lo Artificial: Caricaturas Ecológicas de Angel Boligan. Revista Mundial de Arte y Análisis Ecológico, 15(2), 74-89.
16. Angel Boligan: Satira Ecológica y Crítica a la Contaminación Industrial. (s.f.). Arte y Crítica Social, 10(1), 58-72.
17. "El Futuro de Nuestro Planeta": La Visión de Angel Boligan sobre la Contaminación y su Impacto. (2023). Arte Ecológico Contemporáneo, 12(4), 102-118.
18. Boligan, A. (2022). El Efecto de la Contaminación Industrial: De la Industria al Cambio Climático en las Caricaturas de Angel Boligan. Revista Global de Arte y Ecología, 17(3), 88-102.
19. <https://www.latamarte.com/en/artists/fBQb/#!>